

Davlat zaxiralar komissiyasining
2023-yil “8” iyundagi
1295-son bayonnomasiga
2-ilova

VOLFRAM MA'DANLI KONLARIGA NISBATAN ZAXIRALAR TASNIFINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

I. Umumiy ma'lumotlar

II. Konlarni geologik tuzilishning murakkabligi bo'yicha guruhlash

III. Konlarning o'rganilganligiga oid talablar

IV. Zaxiralarni hisoblashga qo'yiladigan talablar

V. Konlarning o'rganilganlik darajasini baholash

VI. Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash

VII. Xulosa

Ilova. Qattiq foydali qazilmalar konlari geologik tuzilishi murakkabligining xarakterli ko'rsatkichlari.

Mazkur “Volfram ma'danli konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma” (keyingi o'rinlarda – “Yo'riqnoma) volfram jinslari konlarining zaxiralarni o'rganish va hisoblashning asosiy talablari, ularning sanoat miqyosida o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tomonidan 2003 yil 5 sentyabrda tasdiqlangan “Volframli ma'dan konlariga zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma” o'rniga ishlab chiqilgan.

Yo'riqnomaga volfram jinslari, ularning zaxiralarini hisoblash bo'yicha geologik-qidiruv ishlari bo'yicha mahalliy va xorijiy amaliyotni inobatga olib hamda yangi “Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi”ga (26.09.2022 yildagi DZK 1185-son bayonnomasiga 4-son ilova) muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan.

Mualliflar: Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Volfram – zichligi 19,3 g/sm.kub va erishi juda qiyin bo'lgan (erish harorati – 3395 ± 15 °C, qaynash harorati – 5930 °C) kumushsimon oq metallidir.

Yuqori haroratda erishi va kimyoviy chidamliligi, qizigan holatidagi emission quvvati va nur tarqatish, sovuq va qaynoq holatlardagi yuqori darajadagi mexanik zichligi, juda qattiq chidamli birikmalar (karbidlar va boridlar) hosil qilishga va o'ziga xos boshqa xususiyatlarga qodirligi volframli sifatli po'lat (legirlanadigan qo'shimcha sifatida), qattiq, kislotaga chidamli va boshqa maxsus qotishmalar ishlab chiqarishda, shuningdek elektrotexnikada, radioelektronikada va sanoatning boshqa

tarmoqlarida keng ko‘lamda qo‘llash imkonini belgilab berdi.

2. Volfram yer qobig‘ida kam tarqalgan element hisoblanadi, uning klarki (1-1,3) 10^{-4} foizni (massa bo‘yicha) tashkil qiladi. Volfram 22 ta mineral tarkibiga kiradi: buning orasida faqat volframit va sheelit guruhiga oid minerallar sanoat ahamiyatiga ega.

Volframit (Fe, Mn) WO_4 temir volframatining (FeWO_4) va marganes volframatining (MnWO_4) izomorf qorishmasidan iborat bo‘ladi: temir volframat miqdori ko‘proq ($>80\%$) bo‘lgan hollarda mineral ferberit deb, marganes volframat ko‘proq uchraganda esa gyubnerit deb nomlanadi. Tabiatda sof ferberit va gyubnerit juda kam kam uchraydi.

Volframit guruhiga oid minerallar qora, pushtirang yoki qizg‘ish-pushti rang bo‘lib, yuqori darajada zichlikka ega ($7,1-7,9 \text{ g/sm}^3$). Mineral tarkibidagi volfram uch oksidi WO_3 miqdori $76,3 - 76,6\%$ atrofida bo‘ladi. Volframitlar tarkibida tantal ($1,6\% \text{ Ta}_2\text{O}_5$), niobiy ($2,3\% \text{ Nb}_2\text{O}_3$), skandiy (1%) ko‘plab miqdorda, indiy esa kamroq ($0,016\% \text{ In}_2\text{O}_3$) uchraydi.

Sheelit (CaWO_4) deyarli sof kalsiy volframat ko‘rinishida bo‘ladi. Mineral rang oq, sariq, kulrang yoki qo‘ng‘ir, zichligi $5,9-6,1 \text{ g/sm}^3$. Sheelit tarkibida povellit aralashmasi (SaMoO_4) ko‘proq uchraydi. Sheelit ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirilganda ko‘k-yashil rangda flyuoressentlanadi. Tarkibida 1 foizdan ko‘proq molibden mavjud bo‘lganda flyuoressentlanish sariq rang tusini oladi.

Volframli konlarning oksidlanish zonasi, odatda, tungstit $\text{WO}_2(\text{OH})_2$, kuprotungstit $\text{Cu}_2[(\text{OH})_2\text{WO}_4]$ yoki ferritungstit $\text{Ca}_2\text{Fe}^{2+}\text{Fe}^{3+} [\text{WO}_4]_7 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$ paydo bo‘lishiga qarab qayd qilinadi.

3. Volframli ma‘danlar asosiy ma‘danli minerallari bo‘yicha volframit va sheelit ma‘danlariga bo‘linadi.

Volfram konlarining aksariyati kompleks ma‘danlardan iborat. Ularning ayrimlarida bir qancha foydali qo‘shimchalar - volfram va molibden (Qo‘ytosh, Langar – O‘zbekiston), volfram va qalay (Iultin – Rossiya), volfram va mis (Agilkinskoye – Rossiya), volfram, vismut, molibden, qalay (Sargardon – O‘zbekiston) muhim ahamiyat kasb etadi. Ba‘zi konlarning ma‘danlarida birga uchraydigan qo‘shimchalar sifatida molibden, vismut, pirit oltingugurti, oltin, kumush, skandiy, tantal, niobiy va b. hisobga olingan. Ba‘zi bir konlarda volfram ikkinchi darajali komponent hisoblanadi va u qalay, molibden, qo‘rg‘oshin, ruh, surma va oltin bilan birga qazib olinadi.

4. Paydo bo‘lish sharoitlariga ko‘ra volframli konlar endogenli va ekzogenli konlarga bo‘linadi. Endogenli konlar zaxiralar balansida va volfram qazib olishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston hozircha sochma volfram konlari topilmagan.

Zaxiralariga ko‘ra volfram konlari quyidagilarga (WO_3 ming.t.) bo‘linadi: yirik (100 dan ortiq), o‘rta (50-100), mayda (10-50).

Endogen volframli ma‘dan konlarining quyidagi geologik-sanoat turlari

qidirib topilgan: skarnli, aposkarnli-skarnsimon, tomirli-shtokverkli gidrotermal, kvars-greyzenli (1-jadval).

Skarn turiga mansub konlar odatda granitoidlar va karbonatli jinslar intruziyasining oralig'ida yoki unga yaqin bo'lgan ekzokontakt oralig'ida vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan alyumosilikatli va karbonatli jinslar uchastkalarida joylashgan bo'ladi. Volframli ma'dan piroksenli va granat-piroksenli skarnlarda ko'prok uchraydi, u muayyan tavsifga eta bo'lgani hamda skarnlarning tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari yoki mineral tarkib tomonidan nazorat qilinadigan alohida uchastkalar hosil qilgani holda ko'pincha butun massa bo'ylab tarqalmaydi. Asosiy sanoat minerali – sheelitdir. Granitoidli ingruzivlarga nisbatan olganda kontaktli, formatsiyalararo va kesuvchi skarn-ma'danli tanalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kontaktli va formatsiyalararo ma'danli tanalar shakllarining xilma-xilligi bilan tavsiflanadi: kontaktli ma'dan tanalari va qatlamlar orasidagi uyumlar, linzalar, qo'shimcha murakkabliklar yuzaga kelgan hollarda uyg'unlashgan ma'danli tanalar (tog'arasimon, egarsimon, ustunsimon) keng tarqalgan. Kesuvchi tanalar orasida tomir-shtokverkli tanalar ko'p uchraydi. O'zbekistondagi Ingichka, Qo'ytosh, Yaxton, Sariko'l konlari ana shunday konlar sirasiga kiradi. Xorijdagi konlardan Chorux-Dayron (Tojikiston), Kumbel (Qirg'iziston) Flet-River (Kanada) konlarini ta'kidlab o'tish mumkin.

Aposkarn-skarnoidli turiga mansub konlar geologik tutgan o'rniga ko'ra skarn konlariga o'xshash. Asosiy farqi shundaki, bunda volfram ma'dani rogoviklashgan yoki skarnlashgan piroksen-granat tarkibli, ustiga skarnlashuvdan keyingi gidrotermal jarayonlar tushgan jinslarda ma'danlashadi. Asosiy sanoat minerali – sheelitdir. Ma'dan tanalari ko'pincha ko'p yarusli tuzilishiga ega bo'lgan qatlamlararo mos uyumlar, shuningdek murakkab kombinatsiyalashgan katlamsimon-shtokverkli hosilalar shakliga ega.

Bu turdagi konlarga O'zbekistonda Sovutboy va Burgut (Markaziy Qizilqum) konlari kiradi. Yaqin o'xshashlari – Vostok-2, Lermontovskoye, Tirnauz (Rossiya), Ulu-Dag (Turkiya).

Gidrotermal tomirsimon-shtokverkli turiga mansub konlar granitoidli intruziyalar bilan bog'liq bo'lib ularning endokontaktlarida yoki ko'proq qamrovchi terrigen jinslarda joylashadi.

Chiziqli shtokverklar va tomirli tizimlardan iborat. Skarnli-skarnoidlar va kvarsli-greyzenli ma'danlashuv bilan fazoviy assotsiatsiyada bo'ladi. Ma'danlar kvars, kalishpat, flogopit, muskovit va flyuoritlardan iborat. Volframning minerallari asosan sheelitdan iborat. O'zbekistonda bu turdagi mis, molibden, vismut, oltinning miqdori yuqori bo'lgan sheelitli ma'danlashuvga Saritov (Markaziy Qizilqum) konining volframli kvars-dala shpatili shtokverki mansub. Tarkibida oltin bo'lgan dala shpati-kvars-volframli shtokverk namoyonlari oltin ma'danli Muruntov, Mutenboy va kumush ma'danli Kosmonachi konlarida kuzatiladi. Tomirsimon-shtokverkli turidagi yirik sheelitli konlar Qozog'istonda (Verxni Kayrakti, Boguti) ma'lum. Shuningdek tarkibida volframit (gyubirit) ko'p bo'lib, sheeliti kamroq bo'lgan konlar (Inkursnoye, Xoltosonskoye, Rossiya) xam mavjud.

Kvars-greyzenli turiga mansub konlar nordon va ultranordon leykokratlar, ba'zan pegmatoidli granitlar bilan makonda va genetik gyubrenit uyg'un birligida bo'lganligi bilan tavsiflanadi. Asosiy sanoatbop minerali – volframit (gyubnerit, kamroq ferberit. Sheelit oz miqdorda uchraydi. Ma'dan tanalari tomirlar va minerallashgan zonalardan iborat. Tomirlar ko'pincha simmetrik tuzilishiga ega bo'lib, ularning tashqi qismida tarkibida flyuorit, topaz, turmalin bo'lgan kvars-slyudali greyzenlar rivojlangan ichki qismida esa flyuoritli, ba'zida muskovitli tomirsimon kvars rivojlangan.

O'zbekistonda kvars-greyzenli turi kichik konlardan (Sargardon, Barqiroq, Chotqol rayoni) iborat. Chet elda bunday konlar sanoat ahamiyatiga ega va keng tarqalgan (Spokoynskoye, Shumilovskoye - Rossiya; Akchatov - Qozog'iston; Shonsin - XXR).

O'zbekistonda volfram konlarining boshqa turlari xam aniqlangan. Ularga terrigen jinslaridagi, tarkibida sheelit bo'lgan amfibolli metasomatitlardan iborat katta bo'lmagan Daykovoye (Chotqol hududi) koni, granit-porfirlarda (Angren hududi) nomoyon bo'lgan Dukent marganes- volfram namoyonlari kiradi. U tarkibida volfram bo'lgan marganesli oxradan (pirolyuzit, psilomelan) iborat. Ma'danlar termal buloqlar faoliyati bilan bog'liq. Bunday past haroratli gidrotermal marganes- volframli, ma'danlar miqdori ko'p, biroq, masshtabi kichik konlar Qirg'izistonda (Tossor) va dunyoning boshqa mintaqalarida ma'lumdir.

Jadval 1.**VOLFRAMLI MA'DAN KONLARINING GEOLOGIK - SANOAT TURLARI**

Geologik sanoat turi	Strukturaviy-morfologik turi	Volframning asosiy minerallari	WO₃ miqdori	Birga uchraydigan komponentlar	Konlarning turlari
1	2	3	4	5	6
1. Skarnli	Kontaktli tanalar va qatlamlararo uyumlar, totirsimon-shtokverkli va kombinatsiyalangan ma'dan tanalari.	Sheelit	0,2 foizdan bir necha foizgacha	Molibden, mis, vismut, oltin, kamroq qalay va b.	Ingichka, Qo'ytosh, Yaxton, Sarikul (O'zbekiston), Chorux-Dayran (Tojikiston), Flet-River (Kanada).
2. Aposkarn-skarnoidli	Uyg'unlashganga yaqin uyumlar kombinatsiyalangan qatlamsimon-shtokverkli tanalar.	Sheelit	0,2-1,0%	Mis, molibden, qalay, vismut, oltin va b.	Yaqin o'xshashlari – Vostok-2, Lermontovskoye, Tirnauz (Rossiya), Ulu-Dag (Turkiya).
3. Gidrotermal tomir-shtokverkli	Shtokverklar, ma'danlashgan zonalar, tomirlar.	Sheelit, volframit (gyubnerit)	0,1 foizdan bir necha foizgacha	Mis, qalay, molibden, vismut, oltin, kumush va b.	Saritov (O'zbekiston), Iultinskoye (Rossiya) Boguti, V. Kayrakti (Qozog'iston)
4. Kvars-greyzenli	Tomirlar, minerallashgan zonalar, shtokverklar	volframit	0,1 foizdan bir necha foizgacha	Molibden, qalay, vismut, berilliy, tantal, flyuorit va b.	Sargardon, Barkrak (O'zbekiston), Spokoyninskoye, Shumilovskoye (Rossiya), Akchatau (Qozog'iston) Shansin (XXR)

5. Volfram ma'danlarning texnologik xossalari tarkibidagi volfram uch oksidi miqdoriga, mineral tarkibiga va birga uchraydigan komponentlar mavjudligiga, ularning tekstura va strukturaviy o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Volframit va sheelitning miqdori nisbati, donalarining yirikligi va minerallarning o'zaro o'simlilik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tovarbop mahsulot-volframli konsentratlar olish uchun barcha volframli ma'danlar boyitiladi.

Volframitli (gyubnerit, ferberit) ma'danlar uchun odatda cho'kindiga tushiruvchi mashinalarda, gidrotsiklon va konsentratsiya stollarda nam holida boyitishning gravitatsion usullari qo'llanilmoqda. Flotatsiya va flotogravitatsiya sheelitli ma'danlarni boyitishning asosiy usullaridan hisoblanadi.

Shuningdek ma'danlarni oldindan boyitish uchun radiometrik separatsiyalash, tanlama tarzda maydalash, tog' massasini og'ir suspenziyalarga bo'lish usullarini qo'llash ham istiqbollidir. Gravitatsion boyitishda volframit (gyubnerit, ferberit) ni qazib olish miqdori ora-sira joylashgan yirik ma'danlar uchun-70-85 % ni, o'rtacha va mayda hol-hol ma'danlar uchun-52 dan 70 % gachani, flotatsiyalashda sheelit miqdori esa-80-92 % ni tashkil qiladi. Oksidlanish zonasidagi volframli minerallar - tungstit va ferritungstit mavjud usullar yordamida ajratib olinmaydilar.

6. Sheelitli ma'danlar tarkibida flotatsion xossalariga ko'ra sheelitga yaqin bo'lgan povellit va molibdosheelit mavjud bo'lganda bu minerallar kollektiv povellit-sheelit konsentratga kelib tushadi, so'ngra ulardan volframli va molibdenli angidrid, kalsiy molibdat va uch oltingugurtli molibden olish bilan birga gidrometallurgik qayta ishlanadi.

Volframli konsentratlar sifati GOST 213-83 bilan tartibga solib boriladi. Volframli konsentratlarga oid texnik talablar 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval 2

VOLFRAMLI KONSENTRATLARGA QO'YILADIGAN TEXNIK TALABLAR (GOST 213-83)

Volframli konsentrat markasi va nomi	Miqdori, %														Asosiy qoʻllanilish sohasi
	WO ₃ kamida	Aralashmalar, koʻpi bilan													
		MnO	SiO ₂	P	S	As	Sn	Cu	Mo	Ca	Pb	Sb	Bi	Namlik darajalari	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
KVG-1 (1-navga mansub volframit-gyubneritli)	65	17,5	5	0,05	0,7	0,08	0,15	0,1	0,1	norma-lanmaydi	0,20	0,20	0,20	2	Qattiq qotishmalar uchun ferrovolfram va volfram angidrid ishlab chiqarish uchun.
KVG-2 (2-navga mansub volframit-gyubneritli)	60	15,0	5	0,05	0,8	0,05	0,2	0,15	0,2	xuddi shu	0,40	0,30	0,30	1,5	Ferrovolfram ishlab chiqarish uchun
KVG (T) volframit-gyubneritli (qattiq qotishmali)	60	18,0	5	0,1	1,0	0,10	0,6	0,10	0,06	2,5	norma-lanmaydi	norma-lanmaydi	norma-lanmaydi	2	Qattiq qotishmalar uchun ferrovolfram va volfram angidrid ishlab chiqarish uchun.

<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>	<i>10</i>	<i>11</i>	<i>12</i>	<i>13</i>	<i>14</i>	<i>15</i>	<i>16</i>
KVG (K) volframit- gyubneritli (kislotali)	65	norma- lanmaydi	5	0,1	0,7	0,08	1,0	0,4	0,01	2,0	norma- lanmaydi	norma- lanmaydi	norma- lanmaydi	2	Volfram kislotasiishlab chiqarish uchun
KVGF-1 (1-navga mansub volfram- gyubneritli flotatsion konsenrat)	40	-	-	-	-	-	-	-	-	-	xuddi shu	xuddi shu	xuddi shu	3	Qattiq qotishmal ar uchun angidrid ishlab chiqarish uchun
KVGF-2 (2-navga mansub volfram- gyubneritli flotatsion konsenrat)	20	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	3	xuddi shu
KSh-1 (1-navga mansub sheelit konsentrati)	60	2,0	6,5	0,04	0,6	0,05	0,08	0,10	1,0	-	-	-	-	6	Ferrovolfam ishlab chiqarish uchun
KSh-2 (2-navga mansub sheelit konsentrati)	55	-	-	0,5	0,8	0,10	-	-	0,04	-	-	-	-	6	Qattiq qotishmalar uchun volfram angidrid ishlab chiqarish

<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>	<i>10</i>	<i>11</i>	<i>12</i>	<i>13</i>	<i>14</i>	<i>15</i>	<i>16</i>
KSh-3 (3-navga mansub sheelit konsentrati)	53	-	-	0,8	1,5	0,3	-	-	0,04	-	-	-	-	6	Qattiq qotishmalar uchun volfram angidrid ishlab chiqarish
KSh-4 (4-navga mansub sheelit konsentrati)	50	-	-	2,0	3,0	0,5	-	-	0,04	-	norma- lanmaydi	norma- lanmaydi	norma- lanmaydi	6	xuddi shu
KMSh-1 (1-navga mansub molibden- sheelitli)	65	0,1	1,2	0,03	0,3	0,02	0,01	0,10	3,0	-	0,01	0,01	0,01	4	Ferrovolfam ishlab chiqarish uchun
KMSh-2 (2-navga mansub molibden- sheelitli)	60	0,1	4,0	0,04	0,3	0,04	0,02	0,08	3,0	-	0,1	0,01	0,01	6	xuddi shu
KMSh-3 (3-navga mansub molibden- sheelitli)	55	0,1	7,0	0,04	0,6	0,2	0,1	0,10	3,0	-	0,10	0,1	0,10	6	xuddi shu

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
KSh-(T) sheelit konsentrati (qattiq qotishmali)	55	-	-	0,3	1,5	0,1	0,2	0,2	0,04	-	-	-	-	6	Qattiq qotishmalar uchun ferrovolfam va volfram angidrid ishlab chiqarish uchun.

IZOH:

1.Qattiq qotishmalar uchun volfram angidrid ishlab chiqarish uchun yetkazib beriladigan KVG-1 markali konsentrat tarkibidagi molibden 0,04 foizdan oshmasligi kerak.

2.Oqchatov kon-boyitish kombinatining volframli konsentratlari tarkibidagi KVG-1 markali oltingugurt miqdori tayyorlovchi bilan foydalanuvchining kelishishiga ko'ra 1,0 foizdan, KVG-2 markadagisi esa 1.2 foizdan oshmasligiga yo'l quyiladi.

3. Jidin volfram-molibden kombinatt ishlab chiqarayotgan volframli tarkibidagi marganes oksidi miqdori KVG-1 markasi uchun 18 foizdan, qo'rg'oshin-0,4 foizdan oshmasligi kerak. KVG (T) markasi uchun tayyorlovchi bilan foydalanuvchining kelishishiga ko'ra kalsiy oksidi miqdori 7 foizdan, qalay miqdori 0,15 foizdan ko'p bo'lmasligi sharti bilan, oshmasligiga yo'l qo'yiladi.

4.Skopinsk gidrometallurgiya zavodi ishlab chiqarayotgan KVG (T) markali konsentrat tarkibidagi qalay miqdori 1,0 foizdan oshmasligi kerak.

5.Tayyorlovchi bilan foydalanuvchining kelishishiga ko'ra,, Tirniauz volfram-molibden kombinatining volframli konsentratlari tarkibi quyidagicha bo'lishi kerak:

Molibden-KMSH-1 va KMSH-2 markalilarda 4,5 foizdan ko'p bo'lmasligi va KMSH-3 markasida esa 4 foizdan oshmasligi lozim;

Fosfor- KMSH-2 va KMSH-3 markalilarda 0,08 foizdan hamda ushbu markadagi konsentratlarni yetkazib berish umumiy yillik hajmning 15 foizi miqdorida bo'lishi lozim;

- qalay - KMSH-2 markaligida 0,03 foizdan ko'p bo'lmasligi kerak.

6.Uzoq muddat saqlash uchun mo'ljallangan konsentratlar tarkibidagi namlik miqdori barcha markadagi volframit-gyubnerit konsentratlarda 1 foizdan va barcha markadagi sheyelit konsentratlarda 4 foizdan oshmasligi zarur, o'zgaruvchanligi va bir me'yorda taqsimlanmasligi bilan tavsiflanadi (volfram uch oksidining chiziqli va miqdorining variatsiya koeffitsiyentlari 40-100% atrofida bo'ladi).

II. KONLARNI GEOLOGIK TUZILISHNING MURAKKABLIGI BO'YICHA GURUHLASH

7. Ma'dan jismlarining o'lchami va shakli, qalinligining o'zgaruvchanligi, ichki tuzilishi va volfram uch oksidining tarqalish xususiyatlari bo'yicha volfram konlari 26.09.2022 yildagi DZK 1185-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ning 2-, 3- va 4-murakkablik guruhlariga to'g'ri keladi.

1-guruhga volfram uch oksidining nisbatan bir me'yorda taqsimlangan holda oddiy shakldagi yirik shtokverklar va ichki tuzilish ham sodda bo'lgan oddiy geologik tuzilishdagi ma'danli tanalardan iborat hollar (uchastkalar) kiradi (bunda volfram uch oksidining chiziqli zaxiralari va miqdorining o'zgaruvchanlik koeffitsiyentlari, odatda 40 foizdan oshmaydi). Verxne-Kayraktinskoye (Qozog'iston) koni ana shunday konlar jumlasidandir.

2-guruhga geologik tuzilishi murakkab bo'lgan, maydoni planda o'nlab va yuzlab ming kv. metrli (Bogutinskoye - Qozog'iston, Ingurskoye, Spokoynenskoye - Rossiya) va skarnli uyumlarining uzunligi 1-2 kilometrgachani va qalinligi 10 metrgachani tashkil qiladigan yirik shtokverklardan iborat konlar (uchastkalar) mansub (Ingichka – O'zbekiston, Tirnauz – Rossiya). Konlar o'zgaruvchan qalinlik va volfram uch oksidining notekis va taqsimlanmasligi bilan tavsiflanadi (volfram uch oksidining chiziqli va miqdorining o'zgaruvchanlik koeffitsiyentlari 40-100% atrofida bo'ladi).

3-guruhga ma'danli tanalari bilan birga geologik tuzilishi juda murakkab bo'lgan, murakkab tabaqa va linzasimon skarnli uyumlarning uzunligi 1 kilometrni va qalinligi 5-10 metrni tashkil qiladigan (Qo'ytosh, Yaxton, Langar - O'zbekiston), yer tomirlarining o'rtacha o'lchami uzunligi 1 kilometrgacha keladigan va qalinligi bir necha metrdan iborat (Sargardon - O'zbekiston, Iultinskoye, Bom-Gorxonskoye - Rossiya) iborat konlar (uchastkalar) taalluqlidir. Ma'danli tanalar qalinligi bir o'lchamli bo'lmasdan, ma'danlashishi bir me'yorda taqsimlanmaydi, ko'pincha uzilib qoladi (volfram uch oksidining chiziqli zaxiralari va miqdorining koeffitsiyentlari 100-180 % atrofida bo'ladi).

4-guruhga mansub volframli uncha katta bo'lmagan shtoksimon uyumlar yoki ma'danli to'plamlari nihoyatda murakkab uzuq-yuluq uyasimon tarzda taqsimlanadigan tanalardan va mayda tomirlardan iborat bo'lgan, tasnifning ma'dan konlari (uchastkalari) mustaqil ravishda sanoat ahamiyatiga ega emas va ular faqat ishlab turgan korxonalar bilan birgalikda ishlatish uchun yaroqlidir (Tojikistondagi Chorux-Dayron konining Yubileyniy bo'lagi).

O'zbekiston hududida 1- va 4-guruhga mansub konlar topilmagan.

8. Konning (uchastkaning) u yoki bu guruhga mansub konning umumiy zaxirasining kamida 70 foizini tashkil qiladigan asosiy ma'dan tanalari geologik tuzilishining murakkablik darajasi bo'yicha aniqlanadi.

III. KONLARNING O'RGANILGANLIGIGA OID TALABLAR

9. Konlarni yanada samarali o'rganish uchun geologiya-qidiruv ishlarini bosqichlariga oshirishning rioya qilish, ularni to'la-to'kis va sifatli bajarishga qo'yiladigan talablarni qat'iy bajarish, chamalab qidirish usullari va texnik vositalarini oqilona uyg'unlashtirish, ishlarning natijalarini bosqichma-bosqich geologik- iqtisodiy baholashni o'z vaqtida amalga oshirish lozim.

Barcha qidirib topilgan volfram jinslar konlarida, ularning istiqbolliligi tasdiqlansa, ularning sanoat ahamiyatini asoslash uchun zarur bo'lgan hajmlarda mufassal baholanadi. Qidiruv ishlari sanoat ahamiyati faqat texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan asoslangan konlarda olib boriladi.

10. Konni baholash va qidiruv ishlari natijalariga ko'ra, volfram ma'danlari va metall, yo'ldosh foydali qazilmalar va sanoat ahamiyatiga ega foydali komponentlarning geologik va ekspluatatsion zaxiralari belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi va 26.09.2022 yildagi DZK 1185-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ning I, III va V boblariga muvofiq tasdiqlanadi. Hisoblash natijalarining konturi ortida P_1 toifadagi bashoratli resurslar baholanadi.

11. O'rganilgan kon bo'yicha masshtabi obyektning o'lchamiga, geologik tuzilishining xususiyatlariga va relyefiga mos keladigan topografik asos tuzilishi lozim. Volfram konlarida (uchastka) topografik xarita va planlar odatda 1:1000-1:10000 miqyosda tuziladi. Barcha qidiruv va qazib olish ishlari (kanavalar, shurflar, shtolnyalar, shaxtalar va quduqlar), batafsil geofizik kuzatishlar profillari, shuningdek, ma'dan tanalari va minerallashgan zonalarining tabiiy chiqishlari instrumental bog'langan bo'lishi kerak. Yer osti tog' inshootlari va quduqlari rejalarga marksheyderlik syomkasi ma'lumotlari asosida kiritiladi. Tog'-kon ishlari gorizontlarining marksheyderlik rejalari odatda 1:200-1:500 masshtabda, jamlanma rejalari esa 1:1000 dan kam bo'lmagan masshtabda tuziladi. Quduqlar uchun, ularning ma'dan tanasining usti va ostki bilan kesishish nuqtalarining koordinatalari hisoblanishi hamda ularning stvollari davomi qurilishi reja va kesimlar yuzasida amalga oshirilishi kerak.

12. Kon joylashgan rayon bo'yicha miqyosli xaritalar yo'riqnomasi talablariga javob beruvchi 1:25000-1:50000 miqyosdagi kesim va stratigrafik ustunlari ko'rsatilgan geologiya xarita va foydali qazilmalar xaritasiga, hamda rayondagi foydali qazilma resurslarini majmuaviy baholashga imkon beruvchi chizma materiallariga ega bo'lish zarur. Ko'rsatilgan materiallar volfram bo'yicha ma'dan nazorat qiluvchi strukturalar, va jinslar, volfram konlarining ma'dan qamrovchi komplekslarini va volframning bashoratli resurslari baholangan istiqbolli maydonlar joylashuvini aks ettirishi lozim.

Hududda olib borilgan geofizik tadqiqotlarning natijalarini geologik xaritalar va ularning qirqimlarini tuzishda qo'llash va taqdim qilingan xaritalarning

masshtabidagi geofizik noodatiyliklar talqinini jamlanma rejalarda aks ettirish zarur.

13. Konning geologik tuzilishi har tomonlama o'rganilishi va geologik xaritada 1:1000-1:10000 masshtabda (konning kattaligi va murakkabligiga qarab), geologik kesmalar, rejalar, 1:1000-1:10000 masshtabli proyeksiyalar, hajmli modellar, zarur hollarda esa – ma'dan tanasining tub (usti) qatlamining strukturaviy rejalarida, izomiqdorlar rejalarining izoqalinliklarda aks ettirilishi lozim. Konning geologik va geofizik materiallari ma'dan tanasining kattaligi va shakli, ularning yotish sharoiti, ichki tuzilishi va uzluksizligi, ma'dan tanasining nuraganligi, qamrov jinslarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari va ma'dan jinslarining qamrov jinslar, burmali tuzilmalar va tektonik buzilishlar bilan geologik zaxiralarni hisoblashni asoslash uchun zarur va yetarli darajada bog'liqligi haqida tushuncha bera olishi kerak. Shuningdek, konning geologik chegaralarini va bashoratli resurslarining P_1 toifasini baholanadigan istiqbolli hududlarning joylashishini aniqlaydigan qidiruv mezonlarini asoslash lozim.

14. Ma'dan tanalari yoki minerallashgan zonalarining chiqishlari va yer ustiga yaqin qismlari geofizik va geokimyoviy usullardan foydalangan holda tog' inshootlari orqali o'rganilishi va ma'dan tanalari, ularning rivojlanish chuqurligi, oksidlanish zonasining tuzilishi, ma'danlarning oksidlanish darajasi, moddiy tarkibi o'zgarishining jihatlari volfram uchoksidining texnologik xususiyatlari va miqdorini aniqlashga imkon beradigan darajada o'rganilishi hamda oksidlangan va aralash ma'danlar zaxiralarining hisobini sanoat (texnologik) turlar bo'yicha alohida hisoblab chiqilishi lozim.

15. Konning chuqurligini baholash odatda quduqlar bilan, qidirish – konning geologik tuzilishi o'ta murakkabligida tog' inshootlari va quduqlar bilan amalga oshiriladi.

Qidirish uslubiyati ya'ni tog' ishlari va burg'ilash ishlari hajmlarining nisbati, tog' inshootlari turlari va burg'ilash usullari, qidiruv to'ring geometriyasi va zichligi, namunalash usullari va yo'llari geologik tuzilish murakkabligi guruhiga mos kategoriyalar bo'yicha kondagi geologik zaxirani hisoblab chiqish imkonini ta'minlashi zarur. U ma'dan tanasining geologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qidiruvning tog'-kon, burg'ilash va geofizik vositalari, shunga o'xshash turdagi konni qidirish va o'zlashtirish tajribasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Qidiruvning maqbul variantini tanlashda, ma'daning teksturaviy-strukturaviy xususiyatlari hamda burg'ilash davomida kernning yedirilishi ehtimoli va tog' inshootlarida namunalashda volfram uchoksidi va ma'dansiz minerallarning rangga kirishini inobatga olish lozim.

Qidiruvning turli variantlari bo'yicha ishlarning qiyosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va bajarish muddatlarini ham e'tibordan chiqarmaslik zarur.

16. Volfram zaxiralarini hisoblashning ishonchliligini ta'minlashda ustunli burg'ilash – burg'ilashning asosiy usuli hisoblanadi. Sharoshkali burg'ilash minerallashgan zonalar hamda volfram uch oksidining yuqori konsentratsiyasiga

ega uchastkalarni aniqlashdagi baholash ishlarini o'tkazishda qo'llaniladi.

Ustunli burg'ilash quduqlari bo'yicha ma'dan tanalari va qamrab oluvchi jinslar, ularning quvvati, ma'dan tanalarining ichki tuzilishi, ma'dan atrofidagi o'zgarishlarning tabiati, ma'danning tabiiy turlari tarqalishi, ularning strukturasi va teksturasi hamda namunalash materialining ishonchliligi xususiyatlarini kerakli aniqlik bilan aniqlashtirishni ta'minlaydigan hajmda yaxshi saqlangan kerning maksimal chiqishi olinishi lozim.

Geologik qidiruv ishlari tajribasiga ko'ra har bir burg'ilash reysi bo'yicha kern chiqishi kamida 90 foizni tashkil qilishi zarur.

Kernning chiziqli chiqishi aniqlanishi haqiqiylikini boshqa usul orqali tizimli ravishda nazorat qilish lozim.

Volfram uch oksidi miqdori va ma'dan intervallarining quvvatini aniqlash uchun kernning ishonchligi uning tanlanma ishqalanishi imkoniyatlarining tadqiqoti bilan tasdiqlanishi zarur. Buning uchun ma'danlarning asosiy turlari bo'yicha kern va shlamni namunalash natijalari ishonchli tog'i inshootlarini namunalash, pnevmozarbali va sharoshkachi burg'ilash hamda yechiladigan kern qabul qiluvchidan foydalangan holda burg'ilangan kolonkali burg'ilarni namunalash ma'lumotlari bilan o'zaro taqqoslanishi (turli chiqishli intervallar bilan) kerak. Kernning kam chiqishida yoki namunalash natijalarini sezilarli buzadigan tanlanma ishqalanishida qidiruvning boshqa texnik vositalarini qo'llash zarur.

Burg'ilashning informativligini oshirishi uchun yo'naltirilgan kernni qo'llash, kernning holatini baholash, ratsional majmua qo'yilgan vazifaga qarab belgilanadigan quduqlardagi geofizik tadqiqotlar ma'lumotlarini ishlatish, konning aniq geologik-geofizik sharoitlari va geofizikaning zamonaviy usullarini qo'llash lozim. Ma'dan intervalini aniqlash va ularning parametrlarini aniqlash uchun samarali karotaj kompleksi bosqichida konda burg'ilangan barcha quduqlarda bajarilishi kerak.

Chuqurligi 100 metrdan ortiq vertikal va qiya barcha quduqlarda, jumladan yer osti quduqlarida quduqlarning azimuth va zenit burchaklari kamida kamida har 20 metrda nazorat o'lchovlari bilan aniqlanishi va tasdiqlanishi lozim. Mazkur o'lchovlar natijalarini geologik qirqimlar, gorizontli rejalar qurishda va ma'dan intervallari quvvatini hisoblashda inobatga olish zarur. Kon stvollarida tog' inshootlarining qir qilishlari mavjudligida, o'lchovlar natijalari marksheyderlik bog'lamalari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Quduq chuqurligining nazorat o'lchovi kamida har 50 metr qazib o'tishda amalga oshiriladi.

Tik tushadigan ma'dan tanalarini kesishish uchun quduqning sun'iy egrilanishi qo'llash maqsadga muvofiq. Qidiruv samaradorligini oshirish maqsadida ko'p zaboyli quduqlarni, tog' inshootlarining gorizontlari borligida esa – yer osti quduqlarni burg'ilash amalga oshiriladi. Ma'dan bo'yicha burg'ilashni bitta diametrda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

17. Tog' inshootlari kerakli hajmda qazib olinadi va u ma'dan jismlarining

paydo bo'lish sharoitlari, morfologiyasi va ichki tuzilishi, ularning uzluksizligi, ma'danlarning moddiy tarkibi, konning tipik hududlarida ularda volframning tarqalish tabiatini batafsil o'rganish hamda burg'ilash, geofizik tadqiqotlar olib borish, konlarni kuzatishni nazorat qilish va yirik tonnajli texnologik namunalarni tanlab olishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'dan tanalarining uzluksizligi va ularning yoyilish va tushish paytidagi o'zgaruvchanligi va volfram tarkibi o'zgaruvchanligining tabiati kam quvvatli tomirli tipdagi ma'dan tanalari uchun uzluksiz shtreklar va ko'tariluvchilar orqali, minerallashgan zonalar va shtokverklar kabi quvvatli ma'dan tanalari uchun esa – yer osti gorizontal quduqlar tarmog'ini zichlashtirish orqali ishonchli sohalarida yetarli hajmda o'rganilishi kerak.

Tog' inshootlar eng avvalo detalizatsiya uchastkalarida hamda o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan kon uchastkalarida (gorizontlarida) kovlab o'tiladi. Ular konning ekspluatatsiyasi davomida maksimal darajada foydalanishni hisobga olgan holda kovlab o'tilishi lozim.

18. Qidiruv tog' inshootlari va ular orasidagi masofa ma'dan tanalarining har bir strukturaviy-morfologik turi uchun ularning o'lchami, quvvati, ichki tuzilishi, yirikligi va volfram ma'dani tarqalishining xarakterini inobatga olgan holda aniqlanishi lozim. Bunda boyitilgan uchastkalarining ehtimoliy ustunsimon joylashuvini inobatga olish kerak. Qidiruv to'rining qabul qilingan zichligi tarmoqni zichlashtirish yoki bo'shatish, statistik, geostatistik va boshqa usullar orqali detallashtirish maydonlarida tasdiqlanishi lozim.

3-jadvalda O'zbekistonda geologik murakkablikdagi turli guruhlardagi volfram konlarini qidirish uchun foydalaniladigan qidiruv tarmog'ining zichligi to'g'risidagi qidiruvni loyihalashda hisobga olinishi ehtimoliy, ammo majburiy ahamiyatga ega bo'lmagan ma'lumotlar umumlashtirilgan. Har bir tog' inshootining ratsional geometriyasi va qidiruv to'rining zichligi detallashtirish maydonlarini o'rganish, tahliliy hisob-kitoblar va mazkur yoki shu kabi konlarning barcha mavjud geologik, geofizik va ekspluatatsion materiallarini izchil tahlil qilishga qarab asoslanadi.

19. Zaxiralarning ishonchliligini tasdiqlash uchun konning alohida uchastkalari batafsil qidirilishi lozim. Bu uchastkalarni konning boshqa qismiga qaraganda yana-da zich qidiruv to'ri bo'yicha o'rganish va namunalash kerak. Konning ana shunday qidirilgan konlarining uchastkalari va gorizontlaridagi 2- va 3-guruhlariga taalluqli zaxiralar ko'proq B, C₁ va C₂ toifalari bo'yicha chamalab qidirilishi lozim.

Detalizatsiya uchastkalari konning asosiy zaxirasini qamraydigan yotish sharoitlari va ma'dan tanalari shaklining o'ziga xosliklarini va ma'danning asosiy sifatini aks ettirishi lozim. Imkon bo'lsa, ular birinchi navbatda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan zaxiralar konturida joylanadi. Bunday uchastkalar geologik tuzilishning xususiyatlari, ma'danlarning sifati va kon-geologik sharoitlari jihatidan butun kongra xos bo'lmagan vaziyatlarda, ushbu talabga javob beradigan uchastkalar ham batafsil

o'rganilishi zarur. Tafsilotlar maydonlarining soni va hajmi har bir alohida holatda geologik tuzilishining murakkabligiga qarab belgilanadi.

Shtokverkli konlar uchun zaxiralari ma'lum ma'dan jismlarining geometriyasiz, umumlashtirilgan konturda, ma'danli koeffitsiyentlardan foydalangan holda, balans ma'dan maydonlarining fazoviy holatini, tipik shakllari va o'lchamlarini aniqlash asosida hamda zaxiralarni taqsimlash, ma'dan intervallarni, ularning tanlab qazish ehtimoli baholanishi kerak.

Detallashtirish uchastkalarida olingan ma'lumotlar konning murakkablik guruhini asoslash, qidiruv tarmog'ining qabul qilingan geometriyasi va zichligi va tanlangan texnik qidiruv vositalarining uning geologik tuzilishi xususiyatlariga muvofiqligini tasdiqlash, namunalash natijalari va hisoblash parametrlarining ishonchliligini baholash uchun qolgan maydonda zaxiralarni hisoblashda umuman olishda ishlatiladi. O'zlashtirilayotgan konlarda shu maqsadda operatsion qidiruv va o'zlashtirish natijalari qo'llaniladi.

Jadval 3

**O‘ZBEKISTONDAGI VOLFRAM KONLARI QIDIRISHDA QO‘LLANILGAI QIDIRISH INSHOOTLARI TO‘RLARINING
ZICHLIGI TO‘G‘RISIDA MA‘LUMOTLAR**

Konning murakkablik guruhi	Maʼdanli tanalarning tavsifi	Togʻ inshootlari turi	Toifalar uchun togʻ inshootlari oʻrtasidagi masofa (metrda)						Konlarning guruhi
			B		C ₁		C ₂		
			choʻzilishi boʻyicha	yotishi boʻyicha	choʻzilishi boʻyicha	yotishi boʻyicha	choʻzilishi boʻyicha	yotishi boʻyicha	
II	Volfram uch oksidi bir meʼyorda taqsimlanmagan holda murakkab shakldagi skarn uyumlari, kontakt tanalari va qatlamlararo uyumlar	quduqlar shtolnyalar rassechkalar yer osti quduqlari tik (qiyalik) turuvchi togʻ inshootlari	50-60 uzliksiz 30-50 - 60	50-60 25 - - -	100-120 uzliksiz 60-100 - 60-100 100-120	100-120 40-50 - - -	120-160 uzliksiz - - -	120-160 - - -	Ingichka
III	Oʻrtacha oʻlchamli chiziqli shtokverklar va tomirlar, qalinligi doimiy ravishda bir xil boʻlmagan va volfram uch oksidi bir mayorda taqsimlanmaydigan murakkab qatlam va linzasimon uyumlar	quduqlar (ustunli)	30-40	20-25	60-80	40-50	120-160	80-100	Quytoosh, Yaxton, Saritov, Sargardon, Sarikul
		quduqlar (kernsiz)	-	-	40-80	20-40	80-160	20-40	
		shtolnyalar	uzliksiz	30	uzliksiz	40-60	uzliksiz	-	
		shtreklar	“--”	30	“--”	40-60	“--”	-	
		rassechkalar	15-20	-	30-40	-	-	-	
		quduqlar (yer osti)	-	-	30-40	-	60-80	-	
		tik (qiyalik) turuvchi togʻ inshootlari	-	-	60-120	-	-	-	

20. Barcha qidiruv inshootlari va ma'dan tanalari yoki zonalarining yer yuzasiga chiqishi ularni avtomatlashtirilgan qayta ishlash imkoniyati bilan standart shakllar asosida hujjatlashtirilishi kerak. Namunalash natijalari birlamchi hujjatlashtirishga taqdim qilinadi va geologik tavsifga muvofiq tekshiriladi.

Birlamchi hujjatlashtirishning to'liqligi va sifati, konning geologik xususiyatlariga muvofiqligi, tarkibiy elementlarning fazoviy holatini aniqlashning to'g'riligi, eskizlar va ularning tavsiflarini tuzish belgilangan tartibda vakolatli komissiyalarning natura bilan taqqoslash orqali muntazam ravishda nazorat qilinishi kerak. Shuningdek geologik va geofizik namunalash sifatini (kesim va namunalar massasining mustahkamligini, ular holatining uchastkaning tuzilishining o'ziga xos xususiyatlariga, namunalarni tanlab olish to'liqligi va muntazamligiga, nazorat tarzidagi sinash ishlari mavjudligiga va natijalariga muvofiqligi), mineralogik-texnologik va muhandislik geologik tadqiqotlar ishonchliligini hajm massasini aniqlash sifatini, namunalarni ishlashni va tahliliy ishlarni baholash lozim. Bundan tashqari, yig'ma geologik materiallarning geologik materiallar bilan muvofiqligini nazorat qilish zarur. Tekshiruv natijalari dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

21. Foydali qazilmaning sifatini o'rganish, ma'dan tanasini konturlash va zaxiralarni hisoblab chiqish uchun qidiruv tog' inshootlarida ochilgan yoki tabiiy namoyonlarda aniqlangan barcha ma'dan intervallari namunalanishi lozim.

22. Namunalash usullari (geologik va geofizik) va yo'llari tanlanishi konning o'ziga xos geologik xususiyatlari asosida amalga oshiriladi.

Qabul qilingan namunalash usuli natijalarning eng katta ishonchliligi yetarli mahsuldorlik va samaradorlik bilan ta'minlanishi kerak. Namunalashning bir nechta usullari qo'llanilsa, ular natijalarning aniqligi va ishonchliligiga qarab taqqoslanishi kerak.

23. Qidiruv uchastkalarini namunalash quyidagi majburiy shartlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim:

namuna olish tarmog'i barqaror bo'lishi, uning zichligi konning o'rganilayotgan maydonlarining geologik xususiyatlari bilan belgilanadi va odatda konlar tajribasi, analoglari va yangi obyektlarda – tajribaviy ravishda o'rnatiladi. Namunalar konlar va ma'dan tanalarining (ma'dan zonalarining) o'zaro kesishmasida mineralizatsiyaning maksimal o'zgaruvchanligi yo'nalishi bo'yicha olinishi kerak. Ma'dan jismlari qidiruv ishlari (ayniqsa quduqlar) bilan maksimal o'zgaruvchanlik yo'nalishiga keskin burchak ostida kesishsa (agar namunalashning ishonchliligiga shubha bo'lsa), nazorat yoki taqqoslash ishlari zaxiralarni hisoblashda ushbu kesishmalarni namunalash natijalaridan foydalanish imkoniyatini isbotlashi zarur.

namunalash sanoat konturida konditsiyalarga muvofiq kiritilgan bo'sh yoki sifatsiz qatlam quvvatini cheksiz miqdorda qamrovchi jinslarning kirishining ma'dan tanasi to'liq quvvat bilan, doimiy amalga oshirilishi lozim. Aniq geologik chegaralari bo'lmagan ma'dan organlari uchun – barcha qidiruv bo'limlarda, va

ma'dan organlari uchun aniq geologik chegaralar bilan-siyrak ish tarmog'i bo'ylab.

Ariqlarda, chuqurlarda, xandaqlarda, ma'danlarning ildizli chiqishidan tashqari, ularning nurash mahsulotlari ham namunalashdan o'tkazilishi kerak;

tog' inshootlarini (kanava, shtrek, rassechka va b.) namunalash seksiyalar bo'yicha 5x10 sm o'lchamli jo'yaklarda amalga oshirilishi lozim. Bu bir qator ma'danli konlardagi tajriba ishlari bilan bir necha bor isbotlangan.

ma'dan tanalarining zalbandlaridagi ma'danlar va minerallashgan jinslarning tabiiy navlari alohida – seksiyalarda namunalashdan o'tkazilishi kerak. Har bir seksiyaning uzunligi (oddiy namuna) ma'dan tanasining ichki tuzilishi, material tarkibining o'zgaruvchanligi, teksturaviy-strukturaviy xususiyatlari, fizik-mexanik va boshqa xususiyatlar bo'yicha, quduqlarda esa – reys uzunligi bo'yicha aniqlanadi. Bu konditsiyalar bilan belgilangan ma'dan tanalarining minimal quvvatidan, shuningdek, ichki va sifatsiz qatlamlarning maksimal quvvatidan oshmasligi zarur. Shu bilan birga, turli xil kern rentabelligi bilan tavsiflangan intervallar alohida namunalashdan o'tkaziladi. Tanlangan kern ishqalanishi mavjud bo'lganda, kern va maydalangan mahsulotlar namunalashdan o'tkaziladi, ular kern va maydalangan mahsulotlar namunalashdan o'tkaziladi. Kern bilan bir xil intervalda mustaqil namuna olinadi namuna alohida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.

Namuna olish ma'dan tanasini to'liq kesib o'tadigan kon inshootlarida inshootning ikkita devori bo'ylab, ma'dan tanasining yotishi bo'ylab o'tgan inshootlarda – zaboylarda amalga oshirilishi kerak. Izlash inshootlarida namunalar orasidagi masofa 1-4 metrdan oshmasligi lozim (namuna olish qadami eksperimental ma'lumotlar bilan tasdiqlanishi zarur).

Ma'dan tanalari tik yotgan barcha gorizontalaridagi barcha namunalar doimiy, oldindan belgilangan balandlikda joylashtiriladi. Qabul qilingan namunaviy parametrlar tajriba ishlari bilan asoslanishi kerak. Shuningdek, tog' inshooti uchun qabul qilingan namunalash usuli uchun ma'danli yoki jinsli minerallarning ranglanishi ehtimolini o'rganish ishlari amalga oshiriladi. Ma'dan tanalarini to'liq qalinligini ochmaydigan shtrek, ko'tarilish, gezenk, quduqlardan namuna olish ma'lumotlaridan zaxiralarni hisoblashda foydalanilmaydi. Ma'dan tanalarining to'liq quvvatini ochgan yuqoriga ko'tarilgan namunalari ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati har bir holatda volfram uch oksidi bilan boyitilgan maydonlarni (ma'dan ustunlari) taqsimlash xususiyatidan kelib chiqib asoslanishi kerak.

24. Har bir qabul qilingan usul va ma'danlarning asosiy turlari bo'yicha, namuna olish sifati natijalarning to'g'riligi va ishonchliligini baholagan holda tizimli ravishda nazorat qilinishi lozim. Namunalarning geologik tuzilish elementlariga nisbatan holatini va ma'dan tanalarining quvvati bo'yicha konturlanishining ishonchliligiga, namunalarning qabul qilingan parametrlarining izchilligini va haqiqiy massaning jo'yakning qabul qilingan kesimi yoki haqiqiy diametri va kernning chiqishi asosida hisoblangan namunaga (ma'dan zichligi

o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, og'ishlar $\pm 10-20$ foizdan oshmasligi kerak) mosligini o'z vaqtida tekshirish zarur.

Jo'yakdan namuna olish aniqligi xuddi shunday kesimli biriktirilgan jo'yaklardan namuna olish bilan, kerndan namuna olishda – kernning ikkinchi yarmidan namuna olish yo'li bilan nazorat qilinishi zarur.

Tabiiy yotishdagi geofizik namunalashda uskunalar faoliyatining barqarorligi va usulning odatiy va nazorat o'lchovlaridagi bir xil sharoitlarida qaytarilishi nazorat qilinadi. Geofizik namunalashning ishonchligi tanlanma ishqalanish mavjud emasligi isbotlangan yuqori kern chiqishiga ega tayanch intervallar bo'yicha geologik va geofizik namunalash ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Namuna olishning aniqligiga ta'sir qiluvchi kamchiliklar aniqlansa, ma'dan intervalidan qayta namuna olish kerak.

Namuna olishning qabul qilingan uslubi va usullarining ishonchliligi, mavjud uslubiy tavsiyalarga muvofiq ishonchlilik usuli, odatda yalpi nazorat qilinadi. Shu maqsadda hamda texnologik namunalar ma'lumotlaridan, ustunlardagi zichlik va qazib olish natijalarini aniqlash uchun olingan quyma namunalardan foydalanish kerak.

Nazorat namunalar hajmi natijalarni statistik qayta ishlash va tizimli xatolarning yo'qligi yoki mavjudligi to'g'risida asosli xulosalar chiqarish, zaruratga ko'ra tuzatish koeffitsiyentlarini kiritish uchun yetarli bo'lishi lozim.

25. Namunalarni qayta ishlash volframning tarqalish xususiyati, ma'dan materiallari zarralarining hajmi va shaklini hisobga olgan holda, har bir kon bo'yicha ishlab chiqilgan sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi. Asosiy va nazorat namunalari yagona sxema bo'yicha qayta ishlanadi.

Qayta ishlash sifati barcha operatsiyalar uchun, "K" koeffitsiyentining haqiqiyliigi va ishlov berish sxemasiga muvofiqligi nuqtai nazaridan tizimli nazorat qilinishi kerak.

Yirik miqyosli nazorat namunalarni qayta ishlash eng kam vazn va tahlilga olinadigan namunachalar miqdorini aniqlash bo'yicha tajriba ishlarini o'z ichiga olgan, maxsus tuzilgan dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.

26. Ma'dandagi ularning tarkibi davlat standartlarida belgilangan kimyoviy, tahlil, spektral, fizik va boshqa usullar bilan namunalarni tahlil qilish bilan aniqlanadi.

Ma'danlardagi yo'ldosh komponentlarni o'rganish DZK 28-son bayonnomasi bilan 18.08.2018 yilda tasdiqlangan "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Barcha oddiy namunalar, odatda, volfram uch oksidiga, shuningdek miqdori ma'danli tanalarning (molibden, qalay, vismut va boshqalar) bo'yicha chegaralashda hisobga olinadigan komponentlar bo'yicha tahlil qilinadi. Boshqa foydali qo'shimchalar (mis, oltin, kumush, ruh, selen, tellur) va zararli aralashlar (fosfor,

margumush va boshqalar) odatda guruhga oid namunalar bo'yicha belgilanadi. Ma'danlarda volfram uch oksidi va boshqa komponentlar mavjudligini aniqlashda tahlillarning zamonaviy aprobat siya usullari qo'llanilishi mumkin.

Oddiy namunalarni guruhlarga birlashtirish tartibi, uning joylashuvi va umumiy soni ma'danlarning asosiy turlarini yo'ldosh komponentlar va zararli aralashmalarga namunalash va ularning tarkibi ma'dan tanalari yoyilishi va tushishi bo'yicha o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganishni ta'minlashi zarur.

Birlamchi ma'danlarning oksidlanish darajasining chegaralarini aniqlash va oksidlanish zonasi chegarasini belgilash uchun fazali tahlillar bajarilishi kerak.

27. Namunalar tahlillarning sifati muntazam tekshirib turilishi zarur, nazorat natijalariga esa o'z vaqtida ishlov berilishi lozim. Tahlillarning geologik nazorati konni qidirish davri davomida laboratoriya nazoratiga bog'lik bo'lmagan holda amalga oshirilishi kerak. Asosiy va yo'ldosh komponentlarning barchasi zararli aralashmalarni aniqlash uchun bajarilgan tahlil natijalari nazoratda bo'lishi shart.

28. Tasodifiy xatoliklarning miqdorini aniqlash uchun asosiy tahlillarni amalga oshiradigan laboratoriyada ikki nusxadagi tahliliy namunalardan olingan shifrlangan nazorat namunalarini tahlil qilish orqali ichki nazoratni amalga oshirish kerak.

Ehtimoliy tizimli xatoliklarni aniqlash va baholashning tashqi nazorati, nazorat maqomiga ega laboratoriyada o'tkazilishi kerak.

Asosiy laboratoriyada saqlanadigan va ichki nazoratdan o'tgan tahliliy namunalarning ikkinchi nusxalari tashqi nazoratga yuboriladi. O'rganilayotgan namunalarga o'xshash, standart namunalar tarkibi (SNT) mavjud bo'lganda, tashqi nazorat, jumladan asosiy laboratoriyaga tahlil uchun taqdim etilgan namunalar partiyasiga shifrlangan shaklda kiritilishi kerak.

Ichki va tashqi nazoratga yuborilgan namunalar konning barcha turdagi ma'danlari va miqdorini tavsiflashi lozim. Tahlil qilingan komponentlarning noodatiy tarkibini ko'rsatadigan barcha namunalar, jumladan "bo'ronli" miqdorlar ichki va tashqi nazoratga yuboriladi.

